Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston Respublikasi tabiiy mineral resurslarga boy hudud hisoblanadi. So'nggi yillarda respublikada tog'-kon sanoatini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va strategik metallarga oid istiqbolli yo'nalishlarni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmogda [18]. Litiy va unga yaqin elementlar ayrim pegmatit konlari, sho'r suvlar hamda sanoat chiqindilarida uchrase aniqlangan bo'lib, ularni texnogen manba sifatida o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududida neft-gaz sanoati, kon-metallurgiya korxonalari, kimyo sanoati va energetika tarmoqlarida hosil bo'ladigan chiqindilar tarkibida litiy ionlari mavjud bo'lishi mumkin. Xususan, sho'r suvlar, boyitish chiqindilari, metallurgik shlaklar va ishlatilgan litiy-ion batareyalar texnogen xomashyo sifatida qayta ishlanishi mumkin bo'lgan manbalar hisoblanadi. Bunday chiqindilarni qayta ishlash bir tomondan ekologik yuklamani kamaytira, ikkinchi tomondan strategik xomashyo zaxirasini kengaytirish imkonini beradi [7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Litiy resurslarining global miqyosdagi ahamiyati va ularning tarkibiy manbalari Kesler va hammualliflar 2012-yilda olib borgan tadqiqotda batafsil tahlil qilingan. Mualliflar pegmatit konlari, sho'r suvli brinlar va boshqa geologik obyektlarning nisbiy ulushini baholab, litiy ta'minotining uzoq muddatli barqarorligi qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqligini asoslab bergan. Sun va hammualliflar 2018-yilda global litiy oqimlarini savdo zanjirlari bilan integratsiyalashgan holda material oqimlari tahlili asosida o'rganib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatgan. International Energy Agency 2022-yilda e'lon qilgan hisobotida batareyalarni qayta ishlash va litiy tiklash texnologiyalarining energiya o'tish jarayonidagi strategik o'rni alohida ta'kidlangan.

Litiy-ion batareyalarni qayta ishlash bo'yicha dastlabki tizimli sharhlardan biri Xu va hammualliflar 2008-yilda chop etilgan ishida keltirilgan bo'lib, unda pirometallurgik va gidrometallurgik jarayonlar texnologik va iqtisodiy jihatdan taqqoslangan. Keyinchalik Tran va Lee 2018-yilda gidrometallurgik usullarning selektivlik va ekologik samaradorlik nuqtayi nazaridan ustun tomonlarini asoslab bergan. Liu va hammualliflar 2019-yilda ishlatilgan litiy-ion batareyalarni qayta ishlashni tanqidiy tahlil qilib, ko'p bosqichli eritish va selektiv cho'ktirish jarayonlari orqali litiy ajratib olish darajasini oshirish mumkinligini ko'rsatgan.

Sho'r suvlar va sanoat eritmalaridan litiyni ajratib olish texnologiyalari ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Zhang va hammualliflar 1998-yilda tributyl fosfat asosidagi solvent ekstraksiya usulini taklif etib, brinlardan litiy ajratib olish samaradorligini eksperimental asosda baholagan. Liu, Zhao va Li 2019-yilda sinergetik ekstragent tizimlari yordamida selektiv ekstraksiya jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Wang va hammualliflar 2019-yilda ion-elak adsorbsiya texnologiyasi orqali litiyni yuqori selektivlik bilan ajratib olish mexanizmini o'rganib, ushbu usulning sanoat miqyosida qo'llash istiqbollari ko'rsatgan.

Past konsentratsiyali manbalardan litiy ajratib olish masalasi ham dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kim, Shin va Park 2015-yilda litiy-marganets oksidi asosidagi adsorbentlardan foydalanib, dengiz suvidan litiyni



selektiv ajratib olish imkoniyatlarini o'rgangan. Zhao va hammualliflar 2020-yilda geotermal brinlardan selektiv sorbentlar yordamida litiy tiklash jarayonini tahlil qilib, yuqori samaradorlikka erishish shartlarini aniqlagan.

Umuman olganda, 1998–2022-yillar oralig'idagi ilmiy tadqiqotlar litiy birikmalarini ajratib olishning asosiy texnologik yo'nalishlari sifatida gidrometallurgik eritish, solvent ekstraksiya, ion-elak adsorbsiya hamda selektiv sorbsiya usullarini shakllantirdi. Zamonaviy yondashuvlar jarayonlarning selektivligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarish sanoati chiqindilaridan litiy birikmalarini ajratib olishning kombinatsiyalashgan va innovatsion texnologik yechimlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar ishlab chiqarish sanoati chiqindilaridan namuna olish, laboratoriya sharoitida kimyoviy tahlil (ICP-OES, XRD va titrlash usullari), shuningdek gidrometallurgik va adsorbsion tajribalar o'tkazish orqali olindi. Olingan natijalar modellashtirish, massa-balans hisoblari va statistik taqqoslash usullari asosida tahlil qilinib, ajratib olish samaradorligi hamda selektivlik ko'rsatkichlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Litiy ajratib olish jarayonlari asosan gidrometallurgik, pirometallurgik hamda kombinatsiyalangan usullarga asoslanadi. Pegmatit rudalarini qayta ishlashda maydalash, boyitish, yuqori haroratda qovurish va keyinchalik kislota yoki suv bilan eritish bosqichlari qo'llaniladi. Sho'r suvlar va texnogen eritmalaridan litiy ajratishda esa selektiv cho'ktirish, ion-almashinish, ekstraksiya va membranali ajratish texnologiyalari samarali hisoblanadi [1]. Zamonaviy sharoitda resurs tejamkor, energiya sarfi past va ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

Quyidagi jadvalda pegmatitli rudalar tarkibida uchraydigan asosiy litiy minerallari, ularning kimyoviy formulasi, Li_2O miqdori va asosiy tarqalgan hududlari umimlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. Pegmatit tipidagi rudalarda uchraydigan asosiy litiy minerallari¹

Mineral nomi	Kimyoviy formulasi	Li_2O miqdori, %	Asosiy tarqalgan hududlar
Spodumen	$\text{LiAlSi}_2\text{O}_6$	$\approx 8,0$	Avstraliya, Xitoy, Kanada, Zimbabve, Portugaliya, Finlyandiya
Petalit	$\text{LiAlSi}_4\text{O}_{10}$	$\approx 4,5-5,0$	Zimbabve, Namibiya, Kanada
Lepidolit	$\text{K}(\text{Li,Al})_3(\text{Si,Al})_4\text{O}_{10}(\text{F,OH})_2$	$\approx 6,0$	Zimbabve
Amblygonit	$\text{LiAlPO}_4(\text{F,OH})$	$\approx 10,0$	Zimbabve
Bikitait	$\text{LiAlSi}_2\text{O}_6 \cdot \text{H}_2\text{O}$	$\approx 11,8$	Zimbabve
Eukriptit	LiAlSiO_4	$\approx 11,9$	Zimbabve
Montebrasit	$\text{Li}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2$	$\approx 7,0$	Kanada
Jadarit	$\text{LiNaSiB}_3\text{O}_7(\text{OH})$	$\approx 3,0$	Serbiya (istiqboli loyiha bosqichi)
Zinvaldite	$\text{KLiFeAl}(\text{AlSi}_3\text{O}_{10})(\text{F,OH})_2$	$\approx 2,5-5,0$	Sanoat miqyosida cheklangan

Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish sanoati chiqindilaridan litiy mahsulotlarini ajratib olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo sharoitiga mos samarali texnologik yechimlarni taklif etish hamda ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi [20]. Mazkur tadqiqot mintaqadagi texnogen xomashyolardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori qo'shimcha qiymatli litiy mahsulotlarini mahalliy sharoitda ishlab chiqarish va sanoat chiqindilarini kompleks qayta ishlash konsepsiyasini takomillashtirishga qaratilgan [9].

Litiydan foydalanish yo'nalishlari. So'nggi o'n yilliklarda litiy iste'moli tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ilgari uning asosiy qismi keramika va shisha sanoatida qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunda global iste'molning katta ulushi energiya saqlash tizimlari bilan bog'liq. Ayniqsa, litiy-ion batareyalar ishlab chiqarish hajmining oshishi natijasida litiyga bo'lgan talab keskin ortdi [15]. Elektr transport vositalari, energiya saqlash stansiyalari hamda portativ elektron qurilmalar bozorining kengayishi ushbu metallning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

¹ Manba: muallif ishlanmasi

Litiy batareyalar uchun ustuvor material sifatida bir qator fizik-kimyoviy xossalari bilan ajralib turadi. U barcha metall elementlar ichida eng yengili hisoblanadi, yuqori elektrokimyoviy potentsialga ega hamda birlik massa hisobiga katta energiya sig'imini ta'minlaydi [4]. Mazkur xususiyatlar yuqori zichlikdagi energiya manbalarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, litiy keramika va shisha ishlab chiqarishda ham muhim rol o'ynaydi. Uning qo'shilishi eritmaning yopishqoqligini kamaytiradi, erish haroratini pasaytiradi va tayyor mahsulotning issiqlikka chidamliligini oshiradi [11]. Natijada mexanik mustahkamlik ortadi hamda termik zarbalarga bardoshlilik yaxshilanadi.


Metallurgiya va mashinasozlik sanoatida litiy qo'shimchalari qotishmalarning quyilish xususiyatlarini yaxshilaydi va strukturaviy barqarorligini oshiradi. Yuqori haroratga chidamli moylar ishlab chiqarishda litiy asosidagi quyuqlashtiruvchi moddalar keng qo'llanadi [6]. Organik kimyo sohasida esa litiy birikmalari kuchli asos sifatida ishlatiladi va polimer materiallar sintezida, xususan, uglerod-uglerod bog'larini hosil qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo sharoitida litiydan foydalanish istiqbollari asosan elektrotexnika, energetika va kimyo sanoati bilan bog'liq bo'lib, mahalliy xomashyo manbalarini o'zlashtirish hamda sanoat chiqindilaridan litiy ajratib olish texnologiyalarini joriy etish ushbu yo'nalishning barqaror rivojlanishini ta'minlashi mumkin [19].

Litiy xomashyosining tabiiy-geologik manbalari. Hozirgi kunda litiy sanoatda keng qo'llanilishiga qaramay, uning zaxiralari va qazib olish hajmi dunyo bo'yicha notekis taqsimlangan. Asosiy litiy resurslari Janubiy Amerika davlatlari – Chili, Boliviya va Argentina hududlarida joylashgan bo'lib, ular global zaxiralarning katta qismini tashkil etadi. Shuningdek, Avstraliya qattiq rudalardan litiy qazib olish bo'yicha yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi [2]. Mazkur davlatlarda shakllangan sanoat infratuzilmasi litiy bozorining barqaror ishlashini ta'minlab kelmoqda.

Tabiiy sharoitda litiy asosan ikki asosiy manbadan olinadi: qattiq mineral rudalar va sho'r suvli tuzli ko'llar. Pegmatit tipidagi rudalarda litiy spodumen, petalit, lepidolit va boshqa minerallar tarkibida uchraydi. Bunday rudalarni qayta ishlash maydalash, gravitatsion boyitish, flotatsiya, magnit ajratish va yuqori haroratda qovurish bosqichlarini o'z ichiga oladi [14]. Hosil qilingan konsentrat keyinchalik kislota yoki suv bilan eritilib, litiy eritmaga o'tkaziladi. Eritmadan litiy karbonat yoki boshqa tuzlar cho'ktirish orqali ajratib olinadi. Ushbu usul energiya sarfi yuqori bo'lsa-da, yuqori konsentratsiyali xomashyo uchun samarali hisoblanadi.

Ikkinchi muhim manba – sho'r suvlar, ya'ni brin eritmaları hisoblanadi. Tuzli ko'llar suvlarida litiy ionlari odatda past konsentratsiyada mavjud bo'lib, ular bilan bir qatorda natriy, kaliy, magniy va kalsiy ionlari ham uchraydi. Bunday eritmalaridan litiy ajratish jarayoni ko'pincha quyosh bug'lantirish havzalarida suvni bug'latish orqali boshlanadi [8]. Keyingi bosqichlarda natriy va kaliy tuzlari cho'ktiriladi, magniy va sulfat ionlari kimyoviy reagentlar yordamida ajratiladi. Oqartirilgan eritmadan litiy karbonat kalsiy karbonat yoki natriy karbonat yordamida cho'ktiriladi (1-rasm).




1-rasm. Dunyo mamlakatlari bo'yicha baholangan litiy resurslarining miqdoriy taqsimlanishi (2025-yil, tonna)²



Dunyo mamlakatlari bo'yicha baholangan litiy resurslarining miqdoriy taqsimlanishi 1-rasmda keltirilgan bo'lib, unda Boliviya va Argentina eng yirik resurs bazasiga ega davlatlar sifatida ajralib turishi, AQSh, Chili va Avstraliya o'rta diapazondagi ko'rsatkichlarga ega ekani, Kanada, Zimbabve va Braziliyada esa nisbatan kichikroq hajmdagi resurslar qayd etilgani aks ettirilgan. Mazkur taqsimot global litiy xomashyo bazasining hududiy notekisligini ko'rsatadi.

Sho'r suvlarni qayta ishlash usuli nisbatan arzon xomashyo bazasiga ega bo'lsa-da, jarayonning davomiyligi uzoq bo'lishi va iqlim sharoitlariga bog'liqligi bilan tavsiflanadi [17]. Zamonaviy texnologiyalarda ion-almashinish, membranali ajratish va selektiv ekstraktsiya usullari qo'llanilib, litiy ajratish samaradorligini oshirishga qaratilgan yechimlar ishlab chiqilmoqda (2-rasm).



2-rasm. 2025-yil uchun litiy iste'molining sanoat tarmoqlari bo'yicha strukturaviy taqsimoti³

Markaziy Osiyo mintaqasida ham sho'r suvlar va pegmatitli rudalar potensial litiy manbalari sifatida baholanmoqda (2-jadval). Shu bilan birga, sanoat chiqindilarini texnogen manba sifatida o'rganish mintaqada litiy resurs bazasini kengaytirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin (2-jadval).

2-jadval. Litiy tuzli ko'llarning asosiy xususiyatlari⁴

Tuzli ko'l nomi	Mamlakat	Litiy miqdori (%/tonna)	Mg/Li nisbati
Atakama	Chili	0.15	6.4
Hombre Muerto	Argentina	0.062–5	1.37
Rincon	Argentina	0.033	8.61
Uyuni	Boliviya	0.035	18.6–21.5
Silver Peak	AQSh	0.023	1.43
Zhabuye ko'li	Xitoy	0.12	Past
DXC tuzli ko'li	Xitoy	0.04	0.22

Dengiz va okean suvlari mineral resurslarning muhim va istiqbolli muqobil manbasi hisoblanadi. Ular tarkibidagi litiy zahiralari global miqyosda katta hajmni tashkil etadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, dengiz suvida mavjud litiy miqdori taxminan $2,6 \times 10^{11}$ tonnaga teng bo'lib, bu ko'rsatkich an'anaviy ruda va gil konlaridagi zaxiralardan ancha yuqori. Shu sababli dengiz suvi kelajakda litiy olishning strategik manbasi sifatida qaralmoqda.

³ Manba: muallif ishlanmasi

⁴ Manba: muallif ishlanmasi

Hozirgi vaqtda dunyoda litiy ishlab chiqarishning qariyb 60 foizi qattiq mineral konlaridan, asosan Avstraliyada joylashgan konlardan olinadi [5]. Qolgan qismi esa Janubiy Amerikadagi sho'r eritmalar – salar tipidagi tuzli ko'llardan ajratib olinadi. Bundan tashqari, Rossiya, Germaniya va Koreya kabi davlatlarda sho'r ko'llar, geotermal suvlar, gidromineral manbalar hamda dengiz suvidan litiy ajratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Dengiz suvidan litiy ajratib olish dastlab ikki asosiy texnologik yo'nalishda rivojlangan. Birinchi yo'nalish ko'cho'ktirish va ekstraksiya jarayonlariga asoslanadi. Ikkinchi yo'nalish esa ion-almashinish va sorbsiya mexanizmlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Yakuniy bosqichda litiy karbonat (Li_2CO_3) yoki litiy gidroksid kabi sanoat mahsulotlari olinadi [13].

Texnologik jarayon odatda bir necha bosqichdan iborat bo'ladi: dastlabki konsentratsiyalash, aralashmalarni ajratish, selektiv sorbsiya yoki ekstraksiya, so'ngra cho'ktirish va kristallizatsiya. Dengiz suvi tarkibida magniy, natriy, kaliy va kalsiy ionlarining yuqori konsentratsiyasi mavjudligi sababli tozalash bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi [10]. Ayniqsa, Mg/Li nisbatining yuqoriligi selektiv ajratish jarayonini murakkablashtiradi.

Hozirgi zamon tadqiqotlarida yuqori selektiv ion-sorbent materiallar, membranali ajratish texnologiyalari hamda elektrokimyoviy usullar istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Ushbu yondashuvlar energiya samaradorligini oshirish, reagent sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi.

Kimyoviy cho'ktirish orqali kompleks ajratish jarayoni ko'p komponentli suyuq eritmalaridan litiy ionlarini ajratib olishga asoslangan gidrometallurgik usullardan biridir. Dengiz suvi va sho'r eritmalarda Li^+ ionlari bilan bir qatorda yuqori konsentratsiyada Na^+ , K^+ , Mg^{2+} , Ca^{2+} ionlari mavjud bo'lib, ayniqsa Mg^{2+} ning Li^+ ga yaqin gidratlanish energiyasi selektiv ajratishni murakkablashtiradi [16].

Jarayonning asosiy mohiyati ma'lum kimyoviy reagentlar yordamida ayrim ionlarni qattiq fazaga o'tkazishdan iborat. Amaliyotda quyidagi moddalar qo'llaniladi:

✓ $\text{Al}(\text{OH})_3$ – alyuminiy gidroksid


✓ Na_2CO_3 – natriy karbonat

✓ $\text{Ca}(\text{OH})_2$ – kaltsiy gidroksid


✓ $\text{Mg}(\text{OH})_2$ – magniy gidroksid

✓ $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ – ammoniy sulfat

Litiy odatda karbonat shaklida cho'ktiriladi:



Magniy ionlarini kamaytirish uchun ishqoriy muhitda quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:



Kaltsiy ionlari esa karbonat shaklida cho'kadi:



Shunday qilib, dastlab eritmadan Mg^{2+} va Ca^{2+} ionlari chiqarib tashlanadi, so'ngra litiy Li_2CO_3 yoki LiOH shaklida olinadi.

So'nggi tadqiqotlarda kimyoviy cho'ktirish jarayoni uch fazali suyuq tizim bilan boyitilgan. Bunda polietilenglikol asosidagi reagentlar Li^+ ionlari bilan kompleks hosil qiladi, organik komplekslovchi moddalar esa bor ($\text{B}(\text{OH})_3$) bilan bog'lanadi. Natijada ionlar zichlik va kompleks hosil qilish qobiliyatiga ko'ra qatlamlarga taqsimlanadi. Mg^{2+} gidrofil xususiyati tufayli suvli pastki fazada qoladi, Li^+ esa komplekslangan holda o'rta fazada to'planadi.


Jarayon samaradorligi ko'p jihatdan Mg/Li nisbatiga bog'liq. Agar $\text{Mg}^{2+}/\text{Li}^+$ nisbati yuqori bo'lsa, Li_2CO_3 cho'ktirishdan oldin qo'shimcha tozalash bosqichlari talab etiladi. Shu sababli amaliy texnologiyalarda kimyoviy cho'ktirish jarayoni ko'pincha ion-almashinish yoki solvent-ekstraksiya bosqichlari bilan birgalikda qo'llaniladi.

Mazkur yondashuvning asosiy afzalligi reagent tanlash imkoniyatining kengligidir. Eritma tarkibiga qarab NaOH , $\text{Ca}(\text{OH})_2$ yoki Na_2CO_3 kabi ishqoriy reagentlar qo'llanib, selektiv ajratish optimallashtiriladi.

Suvli eritmalaridan litiy ajratib olishda ion almashinish va suyuqlik–suyuqlik ekstraksiyasi jarayonlari samarali muqobil texnologiyalar sifatida qaraladi. Ushbu usullar ayniqsa yuqori minerallashtirilgan sho'r eritmalar hamda gidromineral manbalarda qo'llaniladi.

Ion almashinish jarayoni maxsus noorganik yoki kompozit sorbentlar yordamida eritmadagi litiy ionlarini selektiv bog'lashga asoslanadi. Masalan, marganets oksidi asosidagi ion almashinish materiallari litiy ionlariga yuqori selektivlik ko'rsatadi. Shuningdek, titan asosidagi ion almashinish birikmalari ham qo'llaniladi. Ular orasida vodorod titanat va titan antimonat kation almashinish materiallari mavjud bo'lib, gidrotermal manbalardan litiy ajratishda samarali hisoblanadi.

Ion almashinish mexanizmi quyidagicha sodir bo'ladi: qattiq fazadagi almashinuvchi vodorod yoki boshqa kationlar eritmadagi litiy ionlari bilan o'rin almashadi. Natijada litiy sorbent tarkibiga bog'lanadi, boshqa ionlar esa eritmaga o'tadi. Keyinchalik elyutsiya bosqichida nitrat kislota eritmasi yordamida litiy ajratib olinadi va litiy xlorid yoki boshqa tuz shaklida qayta tiklanadi (3-rasm).



3-rasm. Dengiz suvidan litiy ajratib olish jarayonining texnologik sxemasi⁵

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim titan asosidagi sorbentlarda litiy uchun yuqori adsorbsiya sig'imi kuzatilgan. Adsorbsiya izotermasi Langmuir modeli bo'yicha tavsiflanadi, bu jarayon monoqatlamli bog'lanish mexanizmi bilan kechishini bildiradi.

Suyuqlik–suyuqlik ekstraksiyasi jarayonida esa litiy ionlari suvli fazadan organik fazaga taqsimlanadi. Jarayon taqsimlanish koeffitsienti va fazalararo o'zaro ta'sir omillari bilan belgilanadi. Litiy ajratishda asosiy ekstragentlar sifatida birlamchi spirtlar qo'llaniladi. Xususan, uchdan besh uglerod atomli birlamchi spirtlar hamda olti dan sakkiz uglerod atomli alifatik spirtlar samarali hisoblanadi. Izobutanol amaliy jihatdan istiqbolli reagentlardan biri sifatida qayd etilgan.

Ba'zi tadqiqotlarda siklogeksan va trioktilfosfin kabi organik moddalar qo'llanilib, xlorid kislota bilan ishlov berilgan eritmadan kaliy fosfat yordamida litiy ajratilgan. Ushbu usulda litiy xloridning yuqori qayta tiklanish darajasi kuzatilgan. Shuningdek, aralash ekstragent tizimlari ham qo'llaniladi. Masalan, geksaftoratsetil atsetoni va trioktilfosfin oksid aralashmasi litiy ajratishda yuqori samaradorlik ko'rsatgan. Bu yerda birinchi komponent vodorod bog' hosil qiluvchi donor, ikkinchisi esa vodorod bog' akseptori sifatida ishlaydi. Bunday sinergetik aralashma litiy ionlarining organik fazaga o'tishini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish sanoati chiqindilaridan litiy birikmalarini ajratib olish texnologiyalari strategik xomashyo bazasini kengaytirish va resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Pegmatit rudalari, sho'r eritmalar va dengiz suvi bilan bir qatorda texnogen chiqindilar ham istiqbolli litiy manbasi sifatida baholanishi mumkin. Gidrometallurgik jarayonlar, xususan, kimyoviy cho'ktirish, ion almashinish va suyuqlik–suyuqlik ekstraksiyasi usullari yuqori selektivlik va texnologik moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, Mg/Li nisbatining yuqoriligi sharoitida ko'p bosqichli tozalash va selektiv ajratish mexanizmlarini qo'llash jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari zamonaviy sorbent materiallar, membranali ajratish texnologiyalari hamda kompleks fazaviy taqsimlanish usullarini sanoat miqyosida joriy etish istiqbolli ekanligini ko'rsatdi. Markaziy Osiyo sharoitida sanoat chiqindilarini kompleks qayta ishlash orqali yuqori qo'shimcha qiymatli litiy mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lib, bu ekologik yuklamani kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida energiya tejamkor, reagent sarfi past va yopiq siklli texnologik sxemalarni ishlab chiqish litiy metallurgiyasining barqaror rivojlanishida ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gaines L. Lithium-ion battery recycling processes: Research towards a sustainable course // Sustainable Materials and Technologies, 2014, Vol. 1–2, P. 2–7.
2. Swain B. Recovery and recycling of lithium: A review // Separation and Purification Technology, 2017, Vol. 172, P. 388–403.
3. Chagnes A., Światowska J. Lithium Process Chemistry: Resources, Extraction, Batteries and Recycling // Elsevier, Amsterdam, 2015, 330 p.

5 Manba: muallif ishlanmasi



4. Vikström H., Davidsson S., Höök M. Lithium availability and future production outlooks // *Applied Energy*, 2013, Vol. 110, P. 252–266.
5. Meshram P., Pandey B., Mankhand T. Extraction of lithium from primary and secondary sources by pre-treatment, leaching and separation: A review // *Hydrometallurgy*, 2014, Vol. 150, P. 192–208.
6. Flexer V., Baspineiro C., Galli C. Lithium recovery from brines: A vital raw material for green energies with a potential environmental impact in its mining and processing // *Science of the Total Environment*, 2018, Vol. 639, P. 1188–1204.
7. Grosjean C., Miranda P., Perrin M., Poggi P. Assessment of world lithium resources and consequences of their geographic distribution on the expected development of the electric vehicle industry // *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 2012, Vol. 16, P. 1735–1744.
8. Ziemann S., Müller D., Schebek L., Weil M. Modeling the potential impact of lithium recycling from EV batteries on lithium demand // *Resources, Conservation and Recycling*, 2012, Vol. 63, P. 62–70.
9. Wang Q., Sun J., Yao Y., Chen C. Selective recovery of lithium from brines by ion-sieve adsorption // *Journal of Hazardous Materials*, 2019, Vol. 372, P. 1–9.
10. Xu J., Thomas H., Francis R., Lum K., Wang J., Liang B. A review of processes and technologies for the recycling of lithium-ion secondary batteries // *Journal of Power Sources*, 2008, Vol. 177, P. 512–527.
11. Zhang P., Yokoyama T., Itabashi O., Suzuki T., Inoue K. Recovery of lithium from salt lake brine by solvent extraction with tributyl phosphate // *Hydrometallurgy*, 1998, Vol. 50, P. 61–75.
12. Liu Y., Zhao Y., Li F. Selective extraction of lithium from salt lake brine using synergistic extractant systems // *Hydrometallurgy*, 2019, Vol. 187, P. 109–116.
13. Sun X., Hao H., Zhao F., Liu Z. Tracing global lithium flow: A trade-linked material flow analysis // *Resources, Conservation and Recycling*, 2018, Vol. 124, P. 51–65.
14. Battery Recycling and Lithium Recovery // *International Energy Agency Report*, Paris, 2022, 150 p.
15. Kesler S., Gruber P., Medina P., Keoleian G., Everson M., Wallington T. Global lithium resources: Relative importance of pegmatite, brine and other deposits // *Ore Geology Reviews*, 2012, Vol. 48, P. 55–69.
16. Tran T., Lee M. A review on the recovery of lithium from spent lithium-ion batteries using hydrometallurgical processes // *Minerals Engineering*, 2018, Vol. 122, P. 1–11.
17. Liu C., Lin J., Cao H., Zhang Y., Sun Z. Recycling of spent lithium-ion batteries in view of lithium recovery: A critical review // *Journal of Cleaner Production*, 2019, Vol. 228, P. 801–813.
18. Zhao X., Zhang Y., Ning P., Zheng Y. Lithium recovery from geothermal brines using selective sorbents // *Chemical Engineering Journal*, 2020, Vol. 389, 124405.
19. Kim Y., Shin S., Park Y. Recovery of lithium from seawater using lithium manganese oxide adsorbent // *Journal of Industrial and Engineering Chemistry*, 2015, Vol. 21, P. 118–123.
20. Wang J., Zhou Y., Hu Y. Advances in membrane-based lithium extraction from aqueous solutions // *Desalination*, 2021, Vol. 503, 114938.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100